

15–30 yoshli nogiron shaxslar “Najot ta’lim” markazida
5 yo’nalishda bepul ta’lim olishi mumkin (“IMKON” loyihasi):

Veb
dasturlash

Grafik
dizayn

“Moushn
grafika”

SMM

“Digital
marketing”

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

14 (16467)
2022-yil, 22-mart
seshanba

[/yoshlarovoziuz](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Infografika
4-bet

Yetakchining asosiy
vazifalari

Yoshlar hayoti
5-bet

To'lov-kontrakt puli
50% gacha to'lab beriladi

Nigoh
7-bet

“Yosh kitobxon”
5 yoshda



Foto: “Daryo” / Madina Nurman

Yurtimizda Navro‘z

batafsil
2-3-betlar →

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI TABRIK NUTQI

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!
Hurmatli mehmonlar!

Avvalo, siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni sharqona yangi yil – Navro'z bayrami bilan chin yurakdan samimiy tabriklayman.

Barchangizga tinchlik-omonlik, sihat-salomatlik, baxt-umid va saodat va ulkan yutuqlar tilayman.

Bugungi fayzli damlarda chet ellardagi vatandoshlarimizni ham Navro'z ayyomi bilan qutlab, ularga chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Muhtaram do'stlar!

Biz bahor, yasharish va yangilanish fasli – Navro'zi olamni hamisha orziqib, intizorlik bilan kutamiz.

Ammo, bu galgi sog'inchimiz cheksiz, desam, o'ylaymanki, sizlar ham mening fikrimga qo'shilasiz.

Chunki, koronavirus pandemiyasi tufayli biz keyingi ikki yilda ushbu ardoqli bayramni xalqimiz kutganidek yuksak darajada nishonlay olmadik.

Mana, nihoyat, Navro'z bayramini yana keksa-yu yosh barchamiz birgalikda katta shod-u xurramlik bilan qarshi olmoqdamiz.

Bugun Navro'z bayramini Siz, azizlar bilan mana shu muhtasham "Humo" saroyida o'tkazayapmiz.

Chunki, barchangiz ko'rib turibsiz – so'nggi haftada yurtimizda havo sovib, yog'ingarchilik yuz bermoqda.

Ammo hammamiz yaxshi tushunamizki, shu kunlarda osmondan yomg'ir emas, obi rahmat yog'moqda, qut-baraka bilan rizq-u ro'z yog'moqda. Buning uchun Yaratganga har qancha shukronalar aytisak arziydi.

Buyuk alloma Hakim Termiziy bobomiz o'zining "Navro'znoma" kitobida "Navro'zi olam dushanba kuni kirs, yomg'ir, qor yog'adi, dehqonchilik, hosil mo'l bo'ladi – yil to'qchilikda o'tadi", deb yozganlar.

Bu fikrlar bugun – ayni dushanba kuni Navro'zni kutib olayotgan el-yurtimizning ezgu orzu-niyatlari bilan uyg'un va hamohang desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Hurmatli bayram ishtirokchilari!

Biz mamlakatimizda boshlagan ulkan islohotlarimizni davom ettirish maqsadida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" dasturini qabul qildik.

Mehnatkash va olijanob xalqimiz milliy rivojlanishning yangi davriga ulug'vor maqsad va amaliy ishlar bilan kirib bormoqda.

Buning tasdig'ini biz bugun har bir oila, har bir mahalla, qishloq va ovullar, shaharlarimiz misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Yurtimizda yuzlab zamonaviy korxonalar, yo'l va kommunikatsiya tarmoqlari, shinar turar joylar, yangi bog'cha va maktablar, oliygohlar hamda madaniyat maskanlari, tibbiyot va sport inshootlari barpo etilmoqda. Barcha hududlarimizda "Yangi O'zbekiston" bog'lari, "Yangi O'zbekiston" mas-sivlari bunyod qilinmoqda.

"Obod mahalla" va "Obod qishloq" dasturlari qatorida butun mamlakatimiz bo'ylab "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda.

Ushbu bektakror ayyomda Navro'zning olijanob qadriyatlaridan kuch-quvvat va ilhom olgan xalqimiz mahallalarda hasharlar qilib, ko'chat va gullar ekib, yangi-yangi bog'rog'lar, sayilgohlar yaratmoqda.

Aytish mumkinki, ayni paytda butun mamlakatimiz bayram kayfiyati va bunyodkorlik ruhi bilan yashamoqda.

Qadrli do'stlar!

Ma'lumki, dunyoda turli bayramlar, qutlug' sanalar ko'p. Lekin inson qadri va sha'nini ulug'lashda Navro'z ayyomi alohida o'rin tutadi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Navro'zi olam bizni tabiat farzandi bo'lib, Vatan tuprog'ini, ona zamindagi har bir g'iyohni ko'zimizga to'rtiy qilib yashashga o'rgatadi.

Navro'z hammamizga insoniylik, mehr-oqibat va bag'rikenglik fanidan saboq beradi.

Shu fayzli lahzalarda barchamiz tinchlik va osoyishtalik naqadar bebaho ne'mat ekanini, uning qadr-qimmatini va ahamiyatini yaxshi anglaymiz.

Bugungi murakkab dunyoda xalqimiz hayotini, farzandlarimiz kelajagini, musaffo osmonimizni asrab-avaylash uchun har birimiz mas'ul va javobgar ekanimizni yanada chuqurroq his etamiz.

Navro'z bayrami mamlakatimizda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha vatandoshlarimiz uchun umumxalq bayramiga, eng sevimli va ardoqli ayyomga aylangani bilan cheksiz faxrlanamiz.

Ayni shu kunlarda bag'rikeng diyorimizda millatlararo do'stlik, o'zaro hurmat, saxovat va muruvvat tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Inson qadrini ulug'lashga qaratilgan ezgu ishlarimiz doirasida keng jamoatchilik uyma-uy yurib, bemorlar, keksa va nogironlarga, ko'makka muhtoj oilalarga mehr-oqibat, amaliy yordam ko'rsatmoqda.

Biz barcha havas qiladigan bunday boqiy urf-odatlarimizni ko'z qorachig'idek asrab, aziz farzandlarimizni mana shunday yuksak odamiylik ruhida tarbiyalashni davom ettirishimiz lozim.

Ushbu imkoniyatdan foydalanib, Xalqaro Navro'z kuni munosabati bilan barcha xorijiy do'stlarimiz va hamkorlarimizni, bugungi bayramimizda ishtirok etayotgan diplomatik korpus vakillarini ulug' ayyom bilan tabriklab, ularning mamlakatlari va xalqlariga tinchlik, farovonlik va ravnaq tilaymiz.

Aziz yurtdoshlar!

Ertaga yurtimizda yana bir qutlug' bayram – Mahalla kuni keng nishonlanadi. Mahalla biz uchun Vatan ichra kichik vatandir.

Shu bois, biz inson qadrini mahalla bilan uyg'un holda tasavvur etamiz. **Mahalla tinch bo'lsa – butun yurtimiz tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, butun mamlakatimiz farovon bo'ladi.**

Ayni shu sababli, hayotimizda mahallaning o'рни va nufuzini oshirish, yangi vakolat va imkoniyatlarini kengaytirishga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz.

"Mahallabay" ishlash asosida aholining yashash sharoitlarini, hayot darajasi va sifatini yaxshilash, odamlarimizning sog'lig'ini asrash, ijtimoiy muammolarni yechish, xotin-qizlar va yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, ularni ish o'rinlari va uy-joy bilan ta'minlash, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarimiz yangi bosqichga chiqmoqda.

Doimo el-yurt xizmatida bo'lish, uning tashvish va muammolari bilan yashash barcha darajadagi rahbar va mutasaddilar uchun faoliyat mezoniga aylanmoqda.

Fursatdan foydalanib, aholining og'irini yengil, mushkulini oson qilish maqsadida as-toydil xizmat qilayotgan barcha-barcha insonlar – mahalla raislari va faollarini, muhtaram nuroniyalar va xalq noiblarini, kayvoni opa-singillarimizni, hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilarini samimiy tabriklab, ularga yangi zafarlar va omadlar tilayman.

Aziz do'stlar!

Mana shu barakali kunlarda rizq-u nasibamiz bunyodkori bo'lgan mirishkor dehqon va fermerlarimiz, sohibkor bog'bon va cho'ponlarimiz yaxshi kayfiyat va ezgu niyatlar bilan qadrdon dalalari va bog'lari, yashil yaylovlari tomon yo'l olmoqdalar.

Ularning barchasini chin dildan qutlab, yangi mavsumda ishlariga rivoj va omadlar tilab, hosilimiz mo'l, xirmonlarimiz baland bo'lsin, deb pok niyatlar qilamiz.

Hurmatli yurtdoshlar!

Navro'z va yoshlik tushunchalari bir-biriga bag'oyat yaqin va mushtarakdir.

Bugun azmu shijoatli millionlab farzandlarimizga g'urur bilan qarar ekanimiz, bu haqiqatga takroran ishonch hosil qilamiz.

Mana shu hayajonli daqiqalarda, ezgu orzuintilishlar bilan hayotga kirib kelayotgan yosh avlodimizga – aziz bolalarimizga murojaat qilib aytmoqchiman:

Qadrli o'g'il-qizlarim, sizlar mustaqil, erkin va obod Vatan bag'rida voyaga yetmoqdasiz. Bu, hech shubhasiz, bebaho boylik va katta baxt, ayni vaqtda cheksiz mas'uliyatdir.

Nega deganda, ota-onalar, ustozlaringiz boshlagan ulkan ishlarni ertaga aynan sizlar davom ettirasiz.

Bu ulug' vazifaga hozirdan tayyor bo'lishingiz, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallashingiz, muqaddas Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrashingiz, unga hamisha sodiq bo'lib yashashingiz zarur.

Doimo yodingizda bo'lsin – biz intilayotgan yuksak marralarga, hech qachon o'z-o'zidan, osonlik bilan erishib bo'lmaydi.

Yangi O'zbekistonda, Uchinchi Renessansni xalqimizning buyuk qudratidan kuch olib, bugungi va ertangi avlodimiz bunyod etadi.

Sizlar bo'lg'usi Xorazmiy va Farg'oniylar, Beruniy va Ibn Sinolar, Ulug'bek va Navoiylar, Boburlar sifatida Vatanimiz shonu-shuhratini butun dunyoga, albatta, tarannum etasizlar.

Ilm va hunar o'rganishdan, kamolot sari parvozdan aslo to'xtamang. Doimo oldinga, yuksak cho'qqilarga intiling, aziz farzandlarim!

Muhtaram yurtdoshlarim, qadrdonlarim!

Mana shu qutlug' ayyomda siz, azizlarni, butun xalqimizni Navro'z bayrami bilan yana bir bor, chin qalbidan muborakbod etaman.

Navro'zi olam har bir inson, har bir oilaga tinchlik-xotirjamlik, yaxshilik va fayz-u baraka olib kelsin!

Muhtaram otaxon va mo'tabar onaxonlarimizning umrlari ziyoda bo'lsin!

Mehribon opa-singillarimizning ezgu tilaklari ro'yobga chiqsin!

Aziz farzandlarimizning baxt-u iqbolini bersin!

Jonajon Vatanimiz yanada go'zal va obod bo'lsin!

Yurtimiz tinch va osoyishta, xalqimiz doimo sog'-omon bo'lsin!

Navro'z bayramingiz muborak bo'lsin!

YURTIMIZDA NAVRO'Z SHUKUHI

MILLIY QADRIYAT VA AN'ANALARIMIZ FONIDA O'ZIGA XOS MANZARA KASB ETMOQDA



**Jamshid
XO'JAYEV,**

**O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi
direktorining o'rinbosari,
senator**

Inson bir kunda vatanparvar bo'lib qolmaydi. Balki u hayoti davomida yurtini yaxshi ko'radigan, xalqiga sidqidildan xizmat qiladigan bo'lib shakllanib boradi. Bu daraxtning ko'kka bo'y cho'zishi kabi tabiiy jarayon. Ana shu jarayonni atrof-muhit, uni qurshab turgan odamlar tashkil etadi. Shu ma'noda Navro'z ayyomi doim milliy qadriyatlarimizni o'zida jam etgan, insonlarni ezgulikka targ'ib qiladigan bayram sifatida biz uchun juda qadri. Negaki, aynan milliy qadriyatlar zamirida yoshlar qalbidagi o'zi tug'ilib o'sgan zamin va insonlarga mehri ortadi.

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi yurtimizdagi yoshlarni bir maqsad atrofida jamlash, milliy qadriyatlarimizni o'rgatish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ajdodlarimizning boy merosi va urf-odatini, qadriyat va an'analarimizni asrab-avaylash kabi ulkan maqsadda "Qadriyat, urf-odat, an'ana va yoshlar" sayllarini tashkil etdi.

Shu yilning 9-13-mart kunlari yurtimizdagi barcha mahallalarda "Mahallada Navro'z" shiori ostida yoshlar sayli o'tkazilib, bir qator tadbirlar, tomoshalar, xalq o'yinlari, konsertlar uyushtirildi. Xususan, "Sumalak party" doirasida doshqozonlarda sumalak tayyorlanib, mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga tarqatildi. Bundan tashqari, ko'k somsa, ko'k chuchvara, halim pishirilib, xalqimizga ulashildi. "Uch avlod uchrashuvlari"da mahallaning keksa avlod vakillari bilan yoshlar o'rtasida dildan muloqot o'tkazildi. Samimiy suhbatlar chog'ida yoshlar milliy qadriyatlarimiz, tariximiz haqida qiziqarli ma'lumotlarni bilib oldi.

"Varraklar sayli"da 7-25 yoshgacha bo'lgan mahalla yoshlari va bolalar o'z qo'llari bilan yasagan varraklari bilan ishtirok etdi. Yoshlar o'rtasida milliy xalq o'yinlarini keng targ'ib qilish maqsadida turli xalq o'yinlari uyushtirildi. Ochiq maydonlarda "Milliy kurash", "Tosh ko'tarish", "Arqon tortish", "Kamondan o'q otish", "Uloq-ko'pkari", "Chillak" kabi ko'plab milliy o'yinlar o'tkazildi. G'oliblar esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

"Har bir yoshga bir nihol" loyihasi o'quvchi-yoshlar o'rtasida juda katta qiziqish bilan o'tkazildi. Sardorlar va yoshlar o'zlari tanlagan maydonlarga bittadan daraxt ekib, daraxtga o'z ismi aks ettirilgan bog'ichlarni bog'lab qo'yishdi. Mazkur tadbir "Yashil makon" loyihasining mantiqiy davomi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'ngilli yoshlardan iborat guruhlar mahalla hududini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish maqsadida "EKO hashar" o'tkazdi. O'zgalor yordamiga muhtoj fuqarolarning xonadonlari tozalanib, uylari ta'mirlab berildi.

15-17-mart kunlari tuman, shaharlardagi mavjud istirohat bog'lari, yoshlar majmualarida tashkil etilgan yoshlar sayli doirasida "Navro'z - milliy bayram" milliy taomlar ko'rgazmasi, "Milliy raqs" turlari bo'yicha chiqishlar, "Ajdodlar-



ga munosib avlod bo'laylik!" mavzusida (har bir viloyatning faxri bo'lgan ajdodlarimiz siymolarini ko'rsatib berish) bo'yicha ijodiy chiqishlar tashkil etildi.

Hozirgi kunga qadar 120 dan ortiq tuman, shaharlarda tashkil etilgan yoshlar sayllarida "Oshga marhamat" musobaqasida hududning an'analaridan kelib chiqqan holda turli uslublardagi oshlar tayyorlanadi. Mehmonlarga milliy taomlarimiz ma'qul keldi va iliq fikrlarni bildirishdi.

Sayllarda "Har kuning Navro'z bo'lsin" mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi. Yoshlar Navro'z bayrami, uning kelib chiqish tarixi, qadriyat, urf-odat, an'analar to'g'risida o'zlarining mustaqil fikrlarini qog'ozga tushirdi.

Mahalla guzarlarida "Assalom, Navro'z - yangilanish, mehr-oqibat va qadr-qimmat ayyomi!" degan bosh g'oya asosidagi gala-konsert dasturlari tashkil etildi. Konsertda milliy xalq kuylari, yurtini, tinchlikni, milliy qadriyatlarini tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar, aytishuv, askiya, bolalar raqs guruhlarning chiqishlaridan iborat kompozitsiya namoyish etildi. Konsertda taniqli estrada xonadamlari ham ishtirok etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri, shuningdek, barcha hududiy markazlarda bayram sayllari ayni kunlarda davom etib, "Yurtimizda Navro'z shukuhi" dasturlaridan o'rin olgan gala-konsertlar tashkil etilmoqda. 14-30 yoshgacha bo'lgan yoshlari o'rtasida "Navro'z - yoshlar marafoni" ham o'tkazilmoqda.





YETAKCHINING ASOSIY VAZIFALARI


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida:



1. Har bir shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi jami **9 309 ta** mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.



2. Yoshlar ishlari agentligi, uning hududiy boshqarmalari va bo'limlari tuzilmalarida mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash bo'linmalari tashkil etildi.



• "Yoshlar balansi"ni shakllantirish, yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni "Yoshlar daftari" va "Yoshlar portali" elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish;



• mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;




• yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish;



• yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;



• huquqbuzarlik so'dir etishga moyil yoshlar bilan tizimli ishlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashish.



"MADE IN UZBEKISTAN"

ISHLAB CHIQUARUVCHILAR UCHUN IMKONIYATLAR MAYDONI

Guliston shahrida "Made in Uzbekistan" milliy mahsulotlar, hunarmandchilik namunalari va innovatsion loyihalar xalqaro ko'rgazmasi tashkil etildi.

Tadbirda Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi kasb-hunar o'rganish istagidagi 110 nafar yosh ishtirokida "Biznes sayohat" loyihasini, viloyat bandlik bosh boshqarmasi hunarmandchilik to'garaklariga qiziquvchi yosh-

lar uchun mohir usta-hunarmandlar ishtirokida mahorat darsini tashkil etdi.

Ko'rgazmada "Innoweek-2021" tanlovi g'olibi - Mirzaobod tumanidagi "Dehqonobod" mahallasi yoshlar yetakchisi Yashin Mamatqulov o'zining anor mevasi urug'idan yog' olish loyihasi bilan qatnashdi.

Anvar TO'YCHIVEV,

Yoshlar ishlari agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi Axborot va media xizmati rahbari

IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ IQTIDORLI TALABALARGA TO'LOV-KONTRAKT PULI

50%

GACHA TO'LAB BERILADI

1. Ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar qanday mezonlar asosida aniqlanadi?

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar hamda "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning farzandlari ushbu yordamdan foydalana oladi.

2. Subsiya ajratiladigan yoshlar toifasini aniqlash va ularga belgilangan yordamni ajratishda mahalladagi yoshlar yetakchisining roli qanday?

Yoshlar yetakchisi o'z hududida targ'ibot ishlarini olib boradi, aholini ushbu subsidiyani olish shartlari bilan tanishtiradi. Shuningdek, ehtiyojmand talabalarni "Yoshlar daftari"ga kiritishda faol ishtirok etadi. Subsiyani olish uchun talaba Vasiylik kengashiga murojaat etishi lozim.

3. Yosh chegaralari.

Subsiya olish uchun talaba o'n sakkiz yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan bo'lishi lozim.

4. Bir marta yordam olgan talaba keyingi o'quv yilida imtiyozdan takroran foydalanishi mumkinmi?

Agar talabaning ijtimoiy ahvoli o'zgaragan bo'lsa, Vasiylik kengashi qarori bilan yordamdan takroran foydalanishi mumkin.

5. Ajratiladigan subsiya miqdori (shartnoma pulining 50 foizi yoki BHMning 50 baravari-gacha) qanday belgilanadi?

Subsiya miqdori tuman (shahar) Vasiylik kengashlariga kelib tushgan murojaatlar, OTM kontrakt summasi va "Yoshlar daftari" jamg'armasidagi pul

mablag'lariga qarab belgilanadi.

6. Pul qanday ko'rinishda to'lab beriladi?

Belgilangan to'lov-kontrakt summasi professional yoki oliy ta'lim muassasasining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan ko'chiriladi.

7. Talabalarning subsiya ajratish to'g'risidagi murojaatlarini ko'rib chiqish muddati qancha?

I bosqich:

Sektor rahbari 3 kun muddat ichida quyidagilarni o'rganadi va "Yoshlar daftari" jamg'armasi Vasiylik kengashiga tegishli xulosa taqdim etadi:

- 1) Arizachining "Yoshlar daftari"ga kiritilganligini;
- 2) Taqdim etilgan hujjatlarni.

II bosqich:

Vasiylik kengashi tegishli hujjatlarni 12 kun muddat ichida ko'rib chiqadi va "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan ko'mak berish yoki rad etish to'g'risida asoslantirilgan qaror qabul qiladi.

"Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan ko'mak berish rad etilgan taqdirda sektor shtabi kotibi 3 ish kuni ichida bu haqida arizachini yozma shaklda xabardor qiladi.

8. Subsiya olish uchun qanday hujjatlar talab etiladi?

Quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

- Ariza;
- To'lov-kontrakt asosida o'qish haqida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan shartnoma (kontrakt).

YASHARISH VA YANGILANISH AYYOMI — NAVRO'Z BAYRAMINGIZ QUTLUG' BO'LSIN!

Ushbu yangi kun sizlarga cheksiz quvonch, qut-baraka olib kelsin! Jonajon diyorimiz doimo tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin!

O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligining
Farg'ona viloyati boshqarmasi

FARG'ONADAGI KO'CHMA SAYYOR KITOB DO'KONI



OTMGA KIRISHDA SHAHODATNOMADAGI BAHO HISOBGA OLINADI

2022-2023-o'quv yilidan maktab bitiruvchilarining shahodatnomasidagi so'nggi 6 yillik baholari OTMga kirish baliga qo'shiladi. Baholar elektron platformalar orqali hisoblanadi va DTMning "ABITUR" dasturiga yuboriladi.

Baholarning o'rtacha ko'rsatkichi 6-11-siniflardagi yoki 6-9-siniflar va 1-2-bosqichlardagi yillik baholarning umumiy yig'indisini o'qitilgan fanlarga bo'lish orqali chiqariladi.



Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti jamoasi


Butun O'zbekiston xalqini,
shu jumladan, o'qituvchi-
pedagoglarimiz va talabalarni
21-mart — Navro'z umumxalq
bayrami bilan muborakbod etadi!

Fasli navbahor qalbingizga iliqlik
baxsh etib, shu el, shu yurt rivoji
yo'lidagi barcha ishlaringizda sizga
ko'tarinki kayfiyat, kuch-g'ayrat
bag'ishlab tursin!



“YOSH KITOBXON” 5 YOSHDA

SHU VAQTGACHA TANLOV
3 MILLION NAFARDAN ZIYOD
YOSHNI QAMRAB OLDI



Yurtimizda kitobxonlikka, mutolaa madaniyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, har yili “Yosh kitobxon” tanlovi o'tkazib kelinmoqda. O'tgan vaqt davomida tanlov g'oliblariga 11 ta “Spark” avtomobili Prezident sovg'asi sifatida taqdim etildi.

Bu yil tanlov 5 “yosh”ni qarshiladi. O'tgan vaqt davomida tanlov doirasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumot olish uchun Yoshlar ishlari agentligining Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Qandil Boboqulovga murojaat qildik.

– “Yosh kitobxon” tanlovi o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga qay darajada erishmoqda?

– Tanlov yo'lga qo'yilgan vaqtdan buyon (2017-yil) hozirgacha 3 million nafardan ziyod yoshni qamrab oldi. Shuning o'zi loyihaning samarasini ko'rsatib turibdi, deb o'ylayman.

– 2017-yildan buyon tanlovda ishtirokchilar sonining o'sish dinamikasi qanday?

– Birinchi yili 240 ming nafar yosh kitobxon ishtirok etgan bo'lsa, 2021-yilda ular soni 555 mingdan ziyodni tashkil etdi.


– Tanlovning 4- va 5-mavsum kitoblar ro'yxatida deyarli o'zgarishlar yo'q. Jahonning yangi bestseller asarlarini tanlov shartlariga qamrab olish jarayoni qanday ketyapti?

– Tanlov yildan-yilga yoshlar va ularning ota-onalari, jamoatchilik takliflari asosida takomillashib boradi. To'g'ri, 4- va 5-mavsum adabiyotlari 20-30 foizga o'zgardi. Chunki 4-mavsumda qator yangi

asarlarni yoshlarimiz mutolaa qilishga ulgurmaganini bildirgan. Buning amaliy isboti tanlov jarayonlarida ham sezildi. 2022-yildan yangi asarlar imkon darajasida kiritib boriladi.

– Barcha mavsumlarga nazar tashlasak, 3-shart – “She'riyat sharti” bo'yicha ishtirokchilarning ko'pchiligi berilgan parchadagi tushirib qoldirilgan so'zni topa olmagan. Balki ishtirokchilarga she'rlarning hammasini yod olish qiyin bo'layotgandir?

– E'tibor bergan bo'lsangiz, savolga to'g'ri javob topgan ishtirokchilarning ko'pchiligi she'ri yod olmagan bo'lsa-da,



Sardor SA'DULLAYEV suhbatlashdi.

– Tanlovning tuman bosqichi g'oliblarini rag'batlantirish bo'yicha nizomda aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, hech qanday cheklov o'rnatilmagan. Bir qator tuman (shahar)larda hokimliklar ishtirokchilarni munosib rag'batlantirmoqda.

2021-yilda tanlovning tuman bosqichi saralash sifatida o'tkazildi.

– Barcha bosqichlarda shaffoflikni ta'minlash bo'yicha qanday nazorat o'rnatilgan?

– Tanlovning saralash bosqichlari test asosida tuman-dagi muayyan ta'lim muassasasida tashkil etiladi va bu jarayonga hamkor tashkilotlardan mas'ullar birlashtiriladi. Test bo'ladi-gan kuni savollar kodlangan holda Yoshlar ishlari agentligi mutasaddilari orqali yetkaziladi.

Tanlovning shaffofligini ta'minlash maqsadida:

1. Har bir hududga hakamlar guruhi to'liq tarkibida respublikadan olib borildi.

2. Tanlov jarayonlari to'liq videotasvirga olindi.

3. Savollar ekspertlar komissiyasi tomonidan tuzilib, muhurlangan holda yetkazildi.

mantiqiy mulohaza qilib, javob berganini anglash mumkin. Shu bilan birga sahna salobati, kameralar ham ishtirokchilarda kuchli hayajon keltirib chiqarishi, bilgan narsalarini ham esidan chiqarib qo'yishi mumkin. Chunki ular sahna ortida kuzatayotganda tushirib qoldirilgan so'zlarni topishgan.

– “Yosh kitobxon” tanlovi nizomiga e'tibor qaratsak, tuman bosqichida g'alaba qozongan ishtirokchilarni munosib rag'batlantirish haqida hech narsa yo'q. Ishtirokchini o'z tumanining eng yaxshi kitobxon sifatida munosib rag'batlantirishga e'tibor qaratiyaptimi?



199

IMKONIYAT

Prezidentimizning 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son farmoni bilan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun subsidiyalar ajratiladi.

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashda zarur bo'ladigan texnika vositalari va xomashyo sotib olish uchun “Yoshlar daftari” jamg'armasi hisobidan BHMning 40 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratiladi.

Subsiya olish uchun Yoshlar ishlari agentligining tuman yoki shahar bo'limiga murojaat etiladi.

Imtiyozni qo'llash bo'yicha arizalar o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish talab etilganda bir oygacha muddatda ko'rib chiqiladi.

Imtiyozdan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.



"Osmondagi bolalar" to'liq ijtimoiy loyiha hisoblanib, unga 2020-yil "Najot Ta'lim" asoschisi va rahbari Temurbek Adhamov tomonidan asos solingan. Ushbu loyihaning eng asosiy maqsadlaridan biri — o'zining ilmi, salohiyati, tirishqoqligi, mehnati va sabri orqali ma'lum bir muvaffaqiyatga erishgan insonlarni ommaga tanishtirishdan iborat. Hech kim va hech qachon bu loyihaga ma'lum bir mablag' evaziga chaqirilmaydi.

"Osmondagi bolalar" loyihasida ko'rsatuv mehmonlari tomonidan turli xil tavsiyalar berilishi bilan bir qatorda, o'z faoliyatlari davomida erishgan yutuqlari, kelajakdagi maqsadlari haqida so'z boradi. Muvaffaqiyatlari ortida aslida nimalar turganligi va bu yo'lda nimalardan voz kechishga to'g'ri kelishi mumkinligi, maqsadni to'g'ri qo'yishning muhimligi va boshqa shu kabi dolzarb mavzularda ham o'z fikrlarini bildirib o'tishadi.

"Osmondagi bolalar" loyihasida shu kunga qadar kashfiyotchi biolog, xalqaro oftalmolog, eng yosh Prezident maktabi direktori, xalqaro toifadagi savdo iqtisodchisi, kimyo fani bo'yicha xalqaro olimpiadalar g'olibi, SAT sertifikat mutaxassisi, \$1 million investisiya jalb qilgan start-up asoschisi, sun'iy intellekt mutaxassisi, eslab qolish bo'yicha Rossiya rekordchisi, jahonning yirik IT kompaniyalarida faoliyat yurituvchi yoshlar, muvaffaqiyatga erishgan biznes egalari va boshqa shu kabi yutuqqa erishgan insonlar mehmon bo'lib kelishmoqda.

OSMONDAGI BOLALAR

Loyiha qisqa vaqt ichida yoshlarning e'tiborini qozonib, "Tahsin — 2021", "Yil kanali", YouTube kumush tugmasi va boshqa bir qator yirik yutuqlarga erishdi. Bunday yirik loyiha uchun bu yutuqlar hali debocha hisoblanadi. Loyiha o'z oldiga kattadan-katta maqsadlar qo'ygan va bu maqsadlar yo'lida doimiy mehnat qiladi.

"OSMONDAGI BOLALAR" — MUNOSIBLARGA ERGASHING!

osmondagibolalar.uz

[@osmondagibolalar](#)



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Iqbol PARDAYEVA

Musahhihlar:
**Shahribonu RAHMATOVA,
Qirimzoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil II-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi — 2 bosma tabloq. Korxonalar manzili: Buyuk Turoli ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-355, Adadi — 10600. Bosilishga topshirish vaqti — 21.00. Topshirildi — 20.00.

Saytimizga o'tish
uchun QR-kodni
telefoningiz orqali
skaner qiling.



1 2 3 4 5 6